

KASBIY STANDART Fotojurnalistika

(kasbiy standartning nomi)

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanish sohasi: Fotojurnalistika kasbiy standart Fotograf, Fotolaborant, Retushyor kabi kasblari bo'yicha xodimlarga malaka talablarini belgilash, ularning malakasini mustaqil baholash, ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish sohasi va boshqa faoliyat yo'nalishlarida keng turda qo'llaniladi.

2. Ushbu kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim– kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

etika – Fotojurnalist faoliyatida halollik, inson sha'ni va huquqlariga hurmat, yolg'on axborotni tarqatmaslik kabi axloqiy tamoyillar majmuasi;

fotoarxiv – Fotojurnalist tomonidan olingan barcha suratlarning saqlanadigan va hujjatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi;

fotojurnalistika – real voqelikni hujjatlashtirish, ommaga yetkazish va uni obrazlar orqali talqin qilish san'ati hamda kasbiy faoliyati. Bu soha foto suratlar orqali yangilik, axborot va ijtimoiy fikrni shakllantirish vositasi hisoblanadi. Bu san'at va jurnalistikani birlashtiruvchi kasbiy faoliyatdir;

fotoreportaj/foto hikoya – Bir mavzuni ketma-ket fotosuratlar orqali yoritish. Har bir surat o'z-o'zicha ham umumiy hikoya doirasida, ham mazmun kasb etadi;

fotoarxiv – Fotojurnalist tomonidan olingan barcha suratlarning saqlanadigan va hujjatlashtirilgan ma'lumotlar bazasi;

fotojurnalist – Ommaviy axborot vositalari uchun dolzarb voqea-hodisalarni fotosuratlar orqali tasvirlaydigan, axborotni obyektiv tarzda yetkazadigan mutaxassis;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kadr – fotosuratdagi aniq, ma'lum kompozitsion struktura ya'ni tasvirga olinayotgan lavhaning chegaralangan ko'rinishi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

kesish – Suratdan ortiqcha qismlarni olib tashlash. Minimal va maqsadga muvofiq qilingan holatgina etik hisoblanadi. Muhim kontekstni yo'qotish taqiqlanadi;

leyblash – Fotosuratga muallif, joy, vaqt, kontekst haqidagi ma'lumotlarni ilova qilish jarayoni;

manipulyatsiya (tasviriy) – Fotosuratlarni sun'iy tarzda o'zgartirish, voqeani noto'g'ri talqin qilish maqsadida montaj qilish. Fotojurnalistikada bu qat'iy cheklanadi;

multimedia jurnalistikasi – Fotosuratni boshqa axborot vositalari (video, audio, matn) bilan uyg'unlashtirib, interaktiv va ko'p formatli kontent yaratish usuli;

mehnat funksiyasi – mehnat taqsimoti natijasida yuzaga kelgan o'zaro bog'liq mehnat vazifalari majmui;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

obyektivlik – Fotojurnalistning voqelikni shaxsiy qarashsiz, neytral tarzda yoritishga bo'lgan mas'uliyati;

rozilik va maxfiylik – Fotojurnalist, ayniqsa xususiy shaxslarni tasvirga olayotganda, ularning roziligini olishga, maxfiy hayotni hurmat qilishga majbur;

reportaj – Fotojurnalist tomonidan aniq bir voqea yoki holatni joyida hujjatlashtirish va uni foto orqali izchil yoritish shakli;

tabiiy holatda tasvirlash – Shaxslarni ular tayyor turmasdan, hayotiy holatda tasvirga olish uslubi. Bu metod yangiliklarda real holatni aks ettirishda keng qo'llaniladi;

vizual axborot – matnga muqobil yoki uni to'ldiruvchi fotosurat, grafik,

diagramma yoki harakatli tasvir ko'inishida berilgan ma'lumot;

vizual hikoya (Visual storytelling) – Fotosuratlar orqali biror mavzuni, jarayonni yoki odam hayotini izchil va ma'noli tarzda yoritish san'ati;

shoshilinch yangilik fotosuratlar – Zudlik bilan yuz bergan hodisa (falokat, portlash, siyosiy voqea) joyidan tezkor suratlar yetkazish.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 2005-yil 15-yanvardagi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi O'RQ-78-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4366-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ-369-sonli Qarori.

4. Ushbu kasbiy standartda quyidagi qisqartmalar qo'llaniladi:

IFUT – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMR – Milliy malaka ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

m/d – malaka darajasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

II. Kasbiy standartning pasporti

1	Kasbiy standartning nomi	Fotojurnalistika	
2	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi	Voqealarni, yangiliklarni va ijtimoiy hayotni fotosuratlar orqali hujjatlashtirish, xolis va haqqoniy axborotni ommaga vizual tarzda yetkazishdir.	
3	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	J seksiyasi Nashriyot, radioeshittirish hamda kontent ishlab chiqarish va tarqatish sohasidagi faoliyat 60 Dasturlar yaratish, teleko'rsatuv va radioeshittirish, axborot agentliklari va boshqa kontentlar tarqatish faoliyati 60.3 Axborot agentliklari va boshqa kontent tarqatish faoliyati 60.31 Axborot agentliklari faoliyati 60.31.0 Axborot agentliklari faoliyati	
4	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni	Voqea-hodisalarni, jamiyatdagi muhim jarayonlarni va inson hayotini obyektiv, tasviriy hamda ta'sirli tarzda hujjatlashtirish orqali jamoatchilikka axborot yetkazish	
5	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		81320027 — Fotograf	3
		81320028 — Fotolaborant	3
		73210040 — Retushyor	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	81320027 Fotograf	A1.3	Vizual hikoya yaratish uchun fotosuratlar ishlab chiqarish	A1.01.3	Kompozitsiyani rejalashtirish va suratga olish
				A1.02.3	Yorug'lik va uskunalaridan foydalanish
		A2.3	Fotosuratlarni qayta ishlash va tayyorlash	A2.01.3	Raqamli tahrirlash va retush qilish
				A2.02.3	Suratlarni arxivlash va yetkazib berish
2	81320028 Fotolaborant	B1.3	Fotografik materiallarda sifat nazoratini o'tkazish va ularni maqbullashtirish	B1.01.3	Fotosuratlarning sifatini tekshirish
				B1.02.3	Tasvirlarni maqbullashtirish
		B2.3	Fotolaboratoriya uskunalarini boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish	B2.01.3	Uskunalarni sozlash va ishlatish
				B2.02.3	Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish
3	73210040 Retushyor	D1.4	Yuqori aniqlikdagi fotosuratlar, grafikalar yoki reklama materiallariga tahrir ishlov berish	D1.01.4	Tasvir sifatini tahlil qilish
				D1.02.4	Retush uslubini tanlash
		D2.4	Suratlarni mahsulot katalogi, veb-sayt, ijtimoiy tarmoq, reklama uchun mos holatga keltirish	D2.01.4	Maxsus effektlar va grafika ishlovlarini qo'llash
				D2.02.4	Tayyor tasvirni eksport qilish va formatlash

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi	Fotograf	
Mashgʻulot nomining kodi	81320	
TMR boʻyicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar	Fotografiya uskunalari (kamera, yoritish vositalari, obyektivlar) bilan toʻgʻri ishlay olishi, suratga olish texnikasini bilishi, kompozitsiya va badiiy ifoda tamoyillarini tushunishi zarur. Suratlarni raqamli qayta ishlash (retush) hamda asosiy grafik dasturlardan foydalanishni bilishi shart. Har bir suratga olish ishida estetik did va kreativlik koʻrsatishi, mijoz va jamoa bilan muloqot qila olishi, belgilangan muddatda sifatli mahsulot tayyorlay olishi lozim. Turli sharoitlarda ishlashga moslashuvchan hamda intizomli boʻlishi talab etiladi	
Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar	boshlangʻich professional taʼlim, oʻrta maxsus taʼlim, umumiy oʻrta taʼlim	
Norasmiy va informal taʼlim bilan bogʻliqligi	norasmiy (informal) taʼlim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi		
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari	T 3 — 6 razryadli Fotograf	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR boʻyicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	6	Fotomuxbir
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Vizual hikoya yaratish uchun fotosuratlar ishlab chiqarish	A1.01.3- Kompozitsiyani rejalashtirish va suratga olish	Oʻqitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Suratga olishdan oldin mavzu, maqsad va kompozitsiyani aniqlash uchun kadrlarni rejalashtirish
		2. Yorugʻlik sharoitlarini tahlil qilish va mos yorugʻlik manbalarini tanlash
		3. Kameraning texnik sozlamalarini (diafragma, ekspozitsiya, ISO, fokus) moslashtirish
		4. Obyektni eng yaxshi koʻrinishda tasvirlash uchun optimal burchak va fonni tanlash
		Koʻnikmalar:
		Kamera va fotografik jihozlarni (linzalar, tripod, filtrlar) samarali ishlatish
Kompozitsiya qoidalarini (uchdan bir qoidasi, muvozanat, ramka ichida ramka) qoʻllash		

		Tabiiy va sun'iy yorug'likni boshqarish va uning tasvir sifatiga ta'sirini tushunish Suratga olish jarayonida tezkor qaror qabul qilish va ijodiy yondashuvni qo'llash Fokus va ekspozitsiyani aniq sozlash orqali yuqori sifatli tasvirlar olish Muayyan hikoya yoki ma'noni etkazish uchun vizual elementlarni tashkil qilish Bilimlar: Fotografiya asoslari: diafragma, ekspozitsiya, ISO va ularning bir-biriga ta'siri Kompozitsiya va kadr tuzilishi qoidalari (masalan, oltin kesim, simmetriya) Yorug'lik turlari (tabiiy, sun'iy, qattiq, yumshoq) va ularning fotografiyadagi roli Kamera va linzalar turlari, ularning funksiyalari va qo'llanilishi Estetik va vizual hikoya qurishning asosiy usullari
	A1.02.3- Yorug'lik va uskunalardan foydalanish	Mehnat harakatlari: 1. Suratga olish muhitida tabiiy va sun'iy yorug'lik manbalarini tahlil qilish va tanlash 2. Studiya yoki tashqi muhitda yorug'lik uskunalarini (reflektorlar, softbokslar, chiroqlar) o'rnatish va sozlash 3. Fotografik jihozlarni (kamera, linzalar, tripod) suratga olish sharoitlariga moslashtirish 4. Uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish va ularning ish holatini tekshirish Ko'nikmalar: Tabiiy yorug'likni (masalan, quyosh nuri) va sun'iy yorug'likni (LED, floresan) samarali boshqarish Yorug'lik uskunalarini (diffuzorlar, reflektorlar) to'g'ri joylashtirish va sozlash Kamera sozlamalarini (masalan, oq rang balansi, ekspozitsiya) yorug'lik sharoitlariga moslashtirish Fotografik jihozlarni (kamera, linzalar, tripod) xavfsiz va samarali ishlatish Yorug'lik oqimi va soyalar orqali tasvirda kerakli kayfiyatni yaratish Uskunalarining nosozliklarini aniqlash va oddiy texnik muammolarni hal qilish Bilimlar: Yorug'lik turlari (qattiq, yumshoq, yo'naltirilgan) va ularning fotografiyadagi ta'siri Fotografik uskunalar (kamera, linzalar, yorug'lik jihozlari)ning tuzilishi va ishlash prinsipi Oq rang balansi va rang harorati sozlamalarining asoslari

		Yorug'lik o'lchash usullari (masalan, ekspozimetr yordamida) va ularning qo'llanilishi
		Fotografik jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va saqlash qoidalar
		Yorug'likni boshqarishda ishlatiladigan aksessuarlar (softboks, reflektor, filtrlar) va ularning vazifalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Suratga olish jarayonida yorug'lik va uskunalar bilan bog'liq qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilish
		2. Uskunalarining xavfsizligi va to'g'ri ishlashi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, shu jumladan, ularni to'g'ri saqlash va ishlatish
A2.3- Fotosuratlarini qayta ishlash va tayyorlash	A2.01.3- Raqamli tahrirlash va retush qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Fotosuratlarini raqamli dasturlarda (masalan, Adobe Photoshop, Lightroom) import qilish va tahlil qilish
		2. Rang, kontrast, yorqinlik va boshqa parametrlarni sozlash orqali tasvir sifatini yaxshilash
		3. Suratdagi kamchiliklarni (dog'lar, chizmalar, ortiqcha obyektlar) retush qilish
		4. Mijoz talablariga mos ravishda fotosuratlarini kesish, o'lchamini o'zgartirish va formatlash
		Ko'nikmalar:
		Adobe Photoshop, Lightroom yoki boshqa tahrirlash dasturlarida samarali ishlash
		Rang balansi, kontrast va tonlarni sozlash orqali tasvirni estetik jihatdan yaxshilash
		Retush vositalaridan (Clone Stamp, Healing Brush) foydalanib, tasvirdagi nuqsonlarni bartaraf qilish
		Tasvirlarni qatlamlar (layers) bilan ishlash va murakkab tahrirlarni amalga oshirish
		Fotosuratlarini chop etish yoki raqamli foydalanish uchun mos format va o'lchamlarga tayyorlash
		Tahrirlash jarayonida original tasvirning sifatini saqlab qolish va haddan tashqari tahrirdan qochish
		Bilimlar:
		Raqamli tahrirlash dasturlarining asosiy funksiyalari va interfeysi (Photoshop, Lightroom va boshqalar)
		Rang tuzatish (color correction) va ton sozlash (toning) texnikalari
		Retush qilish usullari va vositalari (masalan, Spot Healing, Patch Tool)
		Tasvir formatlari (JPEG, PNG, TIFF) va ularning qo'llanilish sohalari
		Tasvir o'lchamlari, piksellar va DPI/PPi sozlamalarining chop etishdagi ahamiyati
		Estetik tahrirlash prinsiplari va tasvirni haddan tashqari tahrir qilishning salbiy oqibatlari

	A2.02.3- Suratlarni arxivlash va yetkazib berish	Mehnat harakatlari:
		1. Fotosuratlarni raqamli arxivga tartibli joylashtirish va fayllarni nomlash tizimini qo'llash
		2. Suratlarning xavfsiz saqlanishini ta'minlash uchun zaxira nusxalarini yaratish
		3. Mijoz talablariga mos ravishda fotosuratlarni kerakli format va o'lchamda eksport qilish
		4. Tayyorlangan fotosuratlarni mijozga o'z vaqtida yetkazib berish (raqamli platformalar yoki jismoniy tashuvchilar orqali)
		Ko'nikmalar:
		Fayllarni tizimlashtirish va nomlashda standartlashtirilgan yondashuvlardan foydalanish (masalan, sana, loyiha nomi bo'yicha)
		Bulutli xizmatlar (Google Drive, Dropbox) va mahalliy saqlash vositalaridan foydalanish
		Fotosuratlarni turli formatlarga (JPEG, PNG, TIFF) eksport qilish va sifatni optimallashtirish
		Raqamli fayllarni xavfsiz uzatish usullarini (masalan, shifrlangan havolalar) qo'llash
		Arxivlash dasturlarini (masalan, Adobe Bridge) ishlatish orqali fayllarni boshqarish
		Mijoz bilan muloqot qilish va yetkazib berish jarayonini muvofiqlashtirish
		Bilimlar:
		Fayl formatlari (JPEG, PNG, TIFF, RAW) va ularning afzalliklari va cheklovlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	Raqamli arxivlash tizimlari va fayllarni boshqarish prinsiplari
		Zaxira nusxalarni yaratish va ma'lumotlarni yo'qotishdan himoya qilish usullari
		Bulutli saqlash xizmatlari va ularning xavfsizlik sozlamalari
		Fotosuratlarni eksport qilishda sifat va hajmni optimallashtirish usullari
		Mijoz bilan ishlashda professional muloqot va yetkazib berish standartlari
		1. Fotosuratlarni xavfsiz va tartibli saqlash, shuningdek, ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash uchun to'liq mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
		2. Mijoz bilan kelishilgan muddatlarda va talab qilingan sifatda fotosuratlarni yetkazib berishni mustaqil ravishda tashkil qilish
		Kamera (body) – raqamli SLR yoki mirrorless kamera asosiy vositangiz bo'ladi.
		Obyektivlar (linsalar) – turli situatsiyalar uchun: Zoom obyektiv (masalan 24–70 mm) Portretlar uchun prime obyektiv (masalan 50 mm f/1.8)

Kasbning nomi	Fotolaborant	
Mashgʻulot nomining kodi	81320	
TMR boʻyicha malaka darajasi	3	
Malakani baholashga qoʻyiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qoʻyilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qoʻyilgan talablar	Fotografiya uskunalari (kamera, yoritish vositalari, obyektivlar) bilan toʻgʻri ishlay olishi, suratga olish texnikasini bilishi, kompozitsiya va badiiy ifoda tamoyillarini tushunishi zarur. Suratlarni raqamli qayta ishlash (retush) hamda asosiy grafik dasturlardan foydalanishni bilishi shart. Har bir suratga olish ishida estetik did va kreativlik koʻrsatishi, mijoz va jamoa bilan muloqot qila olishi, belgilangan muddatda sifatli mahsulot tayyorlay olishi lozim. Turli sharoitlarda ishlashga moslashuvchan hamda intizomli boʻlishi talab etiladi	
Taʼlim darajasiga qoʻyilgan talablar	boshlangʻich professional taʼlim, oʻrta maxsus taʼlim, umumiy oʻrta taʼlim	
Norasmiy va informal taʼlim bilan bogʻliqligi	norasmiy (informal) taʼlim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin boʻlgan nomlari	T 3 — 5 razryadli Fotolaborant	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR boʻyicha malaka darajasi	Kasbning nomi
	3	Fotograf
	4	Retushyor
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
B1.3- Fotografik materiallarda sifat nazoratini oʻtkazish va ularni maqbullashtirish	B1.01.3- Fotosuratlarining sifatini tekshirish	Oʻqitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Fotosuratlarni raqamli dasturlarda yoki vizual tekshirish orqali texnik nuqsonlar (shovqin, rang burilishlari, piksellanish) uchun tahlil qilish
		2. Tasvirlarning oʻtkirligi, aniqligi va rang muvozanatini tekshirish
		3. Chop etish yoki raqamli foydalanish uchun fotosuratlarining mosligini baholash
		4. Sifatsiz tasvirlarni aniqlab, tahrirlash yoki qayta ishlash uchun tavsiyalar berish
		Koʻnikmalar:
		Fotosuratlarda texnik va estetik nuqsonlarni aniqlash uchun vizual tahlil qilish
		Raqamli dasturlardan (masalan, Adobe Photoshop, Lightroom) foydalanib, tasvir sifatini baholash
Rang muvozanati va ton sozlamalarini tekshirish uchun		

		kalibrlangan monitorlardan foydalanish
		Tasvirning o'lchami, piksellar zichligi (DPI/PPI) va formatini tahlil qilish
		Sifat standartlariga rioya qilgan holda fotosuratlarni sinchkovlik bilan tekshirish
		Mijoz talablariga mos ravishda tasvirlarning sifatini baholash va qaror qabul qilish
		Bilimlar:
		Fotosurat sifatiga ta'sir qiluvchi omillar (yorug'lik, ekspozitsiya, kamera sozlamalari)
		Raqamli tasvir formatlari (JPEG, PNG, TIFF, RAW) va ularning sifat xususiyatlari
		Rang boshqaruvi (color management) va ICC profillari haqida asosiy bilimlar
		Tasvir sifatini baholashda ishlatiladigan dasturiy vositalar va ularning funksiyalari
		Chop etish jarayonlari va sifat standartlari (masalan, DPI talablari)
		Fotografik nuqsonlar (masalan, artefaktlar, linza burilishlari) va ularni aniqlash usullari
		Mehnat harakatlari:
		1. Fotosuratlarni chop etish uchun rang profillarini (CMYK yoki RGB) sozlash va kalibrlash
		2. Tasvir hajmini va sifatini optimallashtirish uchun siqish yoki keskinlashtirish usullarini qo'llash
		3. Fotosuratlarni ma'lum bir foydalanish maqsadiga (veb, chop etish, reklama) mos ravishda o'lchamini o'zgartirish
		4. Tasvirlarni raqamli yoki jismoniy formatda yetkazib berish uchun eksport qilish
		Ko'nikmalar:
		Raqamli dasturlarda (Adobe Photoshop, Lightroom) tasvirlarni siqish va keskinlashtirishni amalga oshirish
		Rang profillarini (ICC) sozlash va chop etish uchun moslashtirish
		Tasvir o'lchamlari va piksellar zichligini (DPI/PPI) maqsadga muvofiq o'zgartirish
		Fayl formatlarini (JPEG, PNG, TIFF) tanlash va eksport sozlamalarini optimallashtirish
		Tasvir sifatini yo'qotmasdan fayl hajmini kamaytirish usullarini qo'llash
		Chop etish jarayonlariga mos ravishda tasvirlarni tayyorlash va tekshirish
		Bilimlar:
		Rang boshqaruvi (color management) va rang profillari (CMYK, RGB)
		Tasvir siqish texnikalari va ularning sifatga ta'siri
		Chop etish uchun tasvir o'lchamlari va piksellar zichligi

B1.02.3-
Tasvirlarni
maqbullashtirish

		(DPI/PPI) talablari
		Raqamli fayl formatlari (JPEG, PNG, TIFF) va ularning qo'llanilish sohalari
		Tasvir optimallashtirish dasturlari (Photoshop, Lightroom) va ularning asosiy funksiyalari
		Veb hamda chop etish uchun tasvirlarni tayyorlashdagi farqlari va standartlari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tasvirlarni optimallashtirish jarayonida sifat standartlariga rioya qilish va loyiha talablariga muvofiq mustaqil qarorlar qabul qilish
		2. Fotosuratlarni chop etish yoki raqamli foydalanish uchun to'g'ri tayyorlash va o'z vaqtida yetkazib berish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
B2.3- Fotolaboratoriya uskunalarini boshqarish va ularga xizmat ko'rsatish	B2.01.3- Uskunalarni sozlash va ishlatish	Mehnat harakatlari:
		1. Fotoprinterlar, skanerlar va kimyoviy ishlov berish uskunalarini ishga tushirish uchun dastlabki sozlamalarni amalga oshirish
		2. Uskunalarni loyiha talablariga (masalan, chop etish o'lchami, sifati) mos ravishda kalibrlash
		3. Fotosuratlarni skanerlash yoki chop etish jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish
		4. Uskunalar ishlayotgan vaqtda ularning ishlashini kuzatish va kerakli sozlamalarni tezkor ravishda o'zgartirish
		Ko'nikmalar:
		Fotoprinterlarni (inkjet, laser) ishlatish va ularning sozlamalarini moslashtirish
		Skanerlarni yuqori sifatli tasvirlarni olish uchun sozlash va ishlatish
		Kimyoviy ishlov berish uskunalarini (masalan, plyonka rivojlantirish tanklari) boshqarish
		Uskuna sozlamalarini (rang kalibrlash, chop etish sifati) loyiha talablariga muvofiq optimallashtirish
		Texnik jarayonlarda uzluksizlikni ta'minlash uchun uskunalar bilan sinchkovlik bilan ishlash
		Uskunalarni ishga tushirish va to'xtatish jarayonlarini xavfsiz amalga oshirish
		Bilimlar:
		Fotoprinterlarning turlari, ishlash prinsipi va sozlash usullari
		Skanerlarning texnik xususiyatlari va tasvir sifatiga ta'sir qiluvchi omillar
		Kimyoviy ishlov berish jarayonlari (plyonka rivojlantirish, fiksaj qilish) va ularning texnik talablari
		Rang kalibrlash va ICC profillarining chop etishdagi ahamiyati
		Uskunalarni ishlatishda xavfsizlik qoidalari va standart operatsion tartib-qoidalar

		Loyiha talablariga mos ravishda uskunar sozlamalarini o'zgartirish usullari
	B2.02.3- Uskunalarga texnik xizmat ko'rsatish	Mehnat harakatlari: 1. Fotoprinterlar, skanerlar va kimyoviy ishlov berish uskunarini muntazam tozalash va texnik holatini tekshirish 2. Uskunalaridagi oddiy nosozliklarni (masalan, siyoh tiqilib qolishi, mexanik muammolar) aniqlash va bartaraf etish 3. Uskunalarining ehtiyot qismlarini (siyoh kartridjlari, qog'oz tepsilari) almashtirish yoki to'ldirish 4. Uskunalar ishlashini monitoring qilish va texnik xizmat ko'rsatish jurnalini yuritish Ko'nikmalar: Fotoprinterlarni tozalash va siyoh tizimlarini tekshirish (inkjet yoki laser printerlar) Skaner linzalari va sensorlarini chang va ifloslanishdan tozalash Kimyoviy ishlov berish uskunarini (masalan, plyonka rivojlantirish tanklari) tozalash va sozlash Oddiy texnik muammolarni (masalan, qog'oz tiqilib qolishi, kalibrlash xatolari) mustaqil ravishda hal qilish Uskunalarining texnik hujjatlarini (foydalanish qo'llanmalari) tahlil qilish va ularga rioya qilish Xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda uskunar bilan ishlash va xizmat ko'rsatish Bilimlar: Fotoprinterlarning tuzilishi, ishlash prinsipi va texnik xizmat ko'rsatish talablari Skanerlarning tuzilishi va tozalash usullari (masalan, optik sensorlarni tozalash) Kimyoviy ishlov berish jarayonlari va uskunariga xizmat ko'rsatish qoidalari Uskunalarining umumiy nosozlik turlari va ularni bartaraf etish usullari Texnik xizmat ko'rsatishda xavfsizlik qoidalari va kimyoviy moddalar bilan ishlash standartlari Uskunalarining ehtiyot qismlari (masalan, siyoh, toner, qog'oz) va ularni almashtirish tartibi
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Uskunalarining uzluksiz va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun muntazam texnik xizmat ko'rsatishni mustaqil ravishda amalga oshirish 2. Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida sifat standartlariga rioya qilish va uskunar ishlamay qolishi oldini olish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
Texnik va/yoki texnologik talab		Minilab yoki fotostudiya protsessori – kino (film)ni qayta ishlash va chop etish tizimi. Bu turdagi jihoz 35 mm film va rasm qog'ozini avtomatik ravishda qayta

	ishlaydi va chop etadi Film qayta ishlash protsessorlari – kino negatvlarini ishlab chiqish uchun maxsus mashinalar Fotografik enlarger (kattalashtiruvchi mashina) – kino negatividan fotosurat qog'oziga chiqish uchun nurni ko'paytiradi va ekspozitsiyalaydi Rangli va qora-oq printerlar – raqamli yoki laborotariya chop etish uchun printerlar Scannerlar (skanerlar) – film va chop etilgan rasmni kompyuterga raqamlashtirish uchun Rang kalibratsiya qurilmalari (colorimeter yoki spectrophotometer) – chop etishda ranglarning aniq chiqishini ta'minlash Laboratoriya uchun kimyoviy tanklar va vannalar – film va rasm qog'ozini kimyoviy eritmalarda qayta ishlash uchun Darkroom timer (vaqt o'lchagich) – ekspozitsiya vaqtini aniqlash uchun moslama Ultrasonik tozalagich – film va skaner elementlarini tozalash uchun
--	---

Kasbning nomi	Retushyor	
Mashg'ulot nomining kodi	73210	
TMR bo'yicha malaka darajasi	4	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Malakani baholash tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Talab etilmaydi	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar	Fotografiya uskunolari (kamera, yoritish vositalari, obyektivlar) bilan to'g'ri ishlay olishi, suratga olish texnikasini bilishi, kompozitsiya va badiiy ifoda tamoyillarini tushunishi zarur. Suratlarni raqamli qayta ishlash (retush) hamda asosiy grafik dasturlardan foydalanishni bilishi shart. Har bir suratga olish ishida estetik did va kreativlik ko'rsatishi, mijoz va jamoa bilan muloqot qila olishi, belgilangan muddatda sifatli mahsulot tayyorlay olishi lozim. Turli sharoitlarda ishlashga moslashuvchan hamda intizomli bo'lishi talab etiladi	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar	O'rta professional ta'lim, umumiy o'rta (o'rta maxsus) ta'lim yoki boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi	norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari	I/Ch 2 — 7 razryadli Retushyor	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi	TMR bo'yicha malaka darajasi	Kasbning nomi
Mehnat vazifalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
D1.4- Fotosuratlarni estetik va ijodiy tahrirlash	O'qitish natijalari	
	Mehnat harakatlari:	
	1. Fotosuratlariga maxsus filtrlar (masalan, vintage, sinematik, sepya) qo'llash orqali estetik uslub yaratish	
	2. Tasvirlarga ijodiy elementlar (yorug'lik nurlari, teksturalar, gradientlar) qo'shish	
	3. Fotosuratlarni loyiha maqsadiga mos ravishda stilizatsiya qilish (masalan, reklama yoki san'atsal loyihalar uchun)	
	4. Vizual effektlarning sifatini tekshirish va ularning tasvirning umumiy estetikasiga mosligini ta'minlash	
	Ko'nikmalar:	
	Adobe Photoshop, Lightroom yoki Affinity Photo kabi dasturlarda vizual effektlar qo'llash	
	Qatlamlar (layers) va maskalar bilan ishlash orqali murakkab effektlar yaratish	
	Tasvirlarga tekstura va gradientlarni qo'shish uchun maxsus vositalardan foydalanish	

		Yorug'lik effektlarini (lens flare, glow) tabiiy va estetik ko'rinishda qo'llash Vizual effektlarni loyiha talablariga moslashtirish va ularning sifatini optimallashtirish Ijodiy yondashuv orqali tasvirning hikoya yoki kayfiyatini kuchaytirish Bilimlar: Vizual effektlar turlari (filtrlardan tortib, yorug'lik effektlarigacha) va ularning qo'llanilishi Raqamli tahrirlash dasturlarining (Photoshop, Lightroom) ilg'or funksiyalari va vositalari Estetik kompozitsiya prinsiplari va vizual hikoya yaratish usullari Rang nazariyasi va effektlarning rang muvozanatiga ta'siri Tasvirlarni stilizatsiya qilishda sanoat standartlari (reklama, jurnal, san'atsal fotografiya) Vizual effektlarning fayl sifati va o'lchamlariga ta'siri (masalan, chop etish yoki veb uchun)
	D1.02.4- Portretlarda teri sifatini yaxshilash uchun retush vositalaridan foydalanish	Mehnat harakatlari: 1. Portret fotosuratlarida teri sifatini tahlil qilish va nuqsonlarni (dog'lar, chandiqlar) aniqlash 2. Teri sifatini yaxshilash uchun retush vositalarini (masalan, Healing Brush, Clone Stamp) qo'llash 3. Yuz xususiyatlarini (ko'z, lab, soch) tabiiy ko'rinishda nozik tahrirlash 4. Tasvirning umumiy estetikasini saqlab, teri tonini tekislash va rang muvozanatini sozlash Ko'nikmalar: Adobe Photoshop yoki Affinity Photo dasturlarida Healing Brush va Spot Healing Brush vositalaridan samarali foydalanish Frequency Separation texnikasini qo'llash orqali teri teksturasini saqlab, nuqsonlarni bartaraf etish Qatlamlar (layers) va maskalar bilan ishlash orqali nozik va tabiiy retush qilish Teri tonini tekislash uchun Dodge va Burn vositalaridan foydalanish Yuz xususiyatlarini (masalan, ko'z o'tkirligi, lab rangi) tabiiy tahrirlash Retush jarayonida tasvirning original sifatini saqlash va haddan tashqari tahrirdan qochish Bilimlar: Teri retushi texnikalari (Frequency Separation, Healing Brush, Clone Stamp) va ularning qo'llanilishi Rang nazariyasi va teri tonlarini tabiiy sozlash usullari Portret fotografiyasida estetik standartlar va mijoz talablari

		Raqamli tahrirlash dasturlarining (Photoshop, Lightroom) ilg'or vositalari va funksiyalari
		Teri teksturasini saqlash va tabiiy ko'rinishni ta'minlash prinsiplari
		Yuz xususiyatlarini tahrirlashda proporsiya va muvozanat qoidalar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Portret retushini mijozning talablari va estetik standartlarga muvofiq mustaqil ravishda amalga oshirish, tasvirning tabiiy ko'rinishini saqlash
		2. Tahrirlangan fotosuratlarining sifati va loyiha muddatlariga rioya qilish uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
D2.4- Reklama va dizayn uchun tasvirlarni tayyorlash	D2.01.4- Tasvirlarni dizayn loyihalariga integratsiyalash	Mehnat harakatlari:
		1. Fotosuratlarini reklama maketlari yoki dizayn loyihalariga moslashtirish uchun kesish va o'lchamini o'zgartirish
		2. Tasvirlarni dizayn elementlari (matn, logotip, grafika) bilan birlashtirish uchun qatlamlar bilan ishlash
		3. Fotosuratlarining rang, kontrast va yorqinligini dizayn loyihasining umumiy uslubiga moslashtirish.
		4. Tayyorlangan tasvirlarni loyiha talablariga muvofiq tekshirish va dizayn jamoasi bilan muvofiqlashtirish
		Ko'nikmalar:
		Adobe Photoshop yoki Illustrator kabi dasturlarda tasvirlarni qatlamlar (layers) va maskalar bilan tahrirlash
		Fotosuratlarini dizayn loyihalariga moslashtirish uchun aniq kesish va o'lcham sozlash
		Dizayn elementlarini (matn, logotip) fotosuratlar bilan uyg'unlashtirish uchun kompozitsiya qoidalarini qo'llash
		Rang muvozanatini loyiha uslubiga moslashtirish uchun rang tuzatish vositalaridan foydalanish
		Tasvirlarni reklama yoki grafik dizayn talablariga mos ravishda optimallashtirish
		Dizayn jamoasi bilan hamkorlikda ishlash va loyiha talablariga tez moslashish
		Bilimlar:
		Grafik dizayn prinsiplari va tasvirlarni reklama loyihalariga integratsiyalash usullari
		Raqamli tahrirlash dasturlarining (Photoshop, Illustrator) ilg'or vositalari va funksiyalari
		Rang nazariyasi va dizayn loyihalarida rang uyg'unligi qoidalar
		Tasvir formatlari (JPEG, PNG, PSD) va ularning dizayn loyihalarida qo'llanilishi
		Reklama va grafik dizayn uchun sanoat standartlari (masalan, banner o'lchamlari, chop etish talablari)

		Dizayn loyihalarida kompozitsiya va vizual muvozanat prinsiplari	
	D2.02.4- Fotosuratlarni maxsus formatlarga moslashtirish	Mehnat harakatlari: 1. Fotosuratlarni reklama bannerlari, jurnal nashrlari yoki ijtimoiy tarmoqlar uchun talab qilingan oʻlchamlarga moslashtirish 2. Tasvirlarni chop etish yoki raqamli platformalar uchun mos fayl formatlariga (JPEG, PNG, TIFF) eksport qilish 3. Tasvir sifatini saqlab, fayl hajmini optimallashtirish uchun siqish usullarini qoʻllash 4. Loyiha talablariga muvofiq tasvirlarning rang profilini (CMYK yoki RGB) sozlash va kalibrlash Koʻnikmalar: Adobe Photoshop yoki Illustrator dasturlarida tasvir oʻlchamlarini aniq sozlash va kesish Fayl formatlarini (JPEG, PNG, TIFF) loyiha talablariga mos ravishda eksport qilish Tasvir sifatini yoʻqotmasdan fayl hajmini optimallashtirish uchun siqish vositalaridan foydalanish Rang profillarini (CMYK, RGB) sozlash va chop etish yoki veb uchun kalibrlash Ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Instagram, X) uchun maxsus oʻlcham hamda format talablariga moslashish Loyiha jadvaliga rioya qilgan holda tasvirlarni tezkor va sifatli tayyorlash Bilimlar: Tasvir formatlari (JPEG, PNG, TIFF, PSD) va ularning reklama va dizayndagi qoʻllanilishi Chop etish uchun piksellar zichligi (DPI/PPI) va oʻlcham talablari Veb platformalar uchun tasvir optimallashtirish usullari (masalan, fayl hajmini kamaytirish) Rang boshqaruvi (color management) va ICC profillarining ahamiyati Reklama va ijtimoiy tarmoqlar uchun standart tasvir oʻlchamlari (masalan, 1080x1080, 1200x628) Raqamli tahrirlash dasturlarining eksport va optimallashtirish funksiyalari	
		Masʼuliyat va mustaqillik:	1. Tasvirlarni loyiha talablariga toʻliq moslashtirish va sifat standartlariga rioya qilish uchun mustaqil ravishda ish yuritish 2. Fotosuratlarni belgilangan muddatlarda va kerakli formatda yetkazib berish uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish
			Texnik va/yoki texnologik talab

	Kamida 16 GB operativ xotira SSD disk (tezkor ishlash uchun) Grafik karta (professional ishlar uchun afzal) IPS panel Yuqori rang aniqligi (sRGB / Adobe RGB) Rang kalibrlash imkoniyati Adobe Photoshop – asosiy retush dasturi Adobe Lightroom – rang tuzatish va kataloglash Capture One – professional rang ishlovi (ixtiyoriy) Retush plaginlari Frequency Separation Dodge & Burn vositalari Nik Collection, Portraiture va boshqalar Rang kalibrator (colorimeter): Monitor ranglarini aniq sozlash uchun Yorug'lik stoli / lightbox (ixtiyoriy): Tasvirlarni solishtirish va tekshirish uchu
--	---

V. Kasbiy standartning texnik ma'lumotlari**5.1. Kasbiy standartni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot (korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1		
2		
3		
4		
5		
6		